

“TIMSOHNING KO’Z YOSHLARI” QISSASIDA FOJIAVIYLIK TASVIRI

**Toshpo’latova Dilchehra**

*Qarshi davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o’zbek qissachiligidagi, jumladan, “Timsohning ko’z yoshlari” qissasidagi bosh qahramonning fojiaviy taqdiri, buning sababi bo’lgan omillar o’rganiladi. Bundan tashqari, obrazlar ruhiyatidagi o’ziga xosliklar tahlil qilinib, ijtimoiy muammolarning ruhiy dunyoga ta’siri tadqiq etiladi.*

**Kalit so’z:** *obraz, konflikt, psixologik tahlil, nashriyot, guvohnoma, Azroil, pioninochi, pospon. Erasmus*

So’z san’atkori badiiy adabiyotning qaysi turida asar yaratmasin, nigohini umumbashariy muammolar yechimi, azaliy qadriyatlarning talqiniga qaratadi. Xususan, qissa janrida voqelikni teran tahlil qilish, inson ruhiyatini tubsiz va qorong’u puchmoqlariga nazar tashlash, hayot mohiyatini anglashga e’tibor kuchaydi. Qissa janri tarkibini kuzatar ekanmiz, unda obrazlar ko’p qirrali ekanligini, konflikt o’tkirligini, psixologik tahlil chuqurligini, badiiy-tasviriy vositalarning xilma-xilligini, mavzular rang-barangligini ko’rishimiz mumkin. Shu o’rinda aytishimiz mumkinki, o’zbek adabiyotida qissa janri ham alohida ahamiyat kasb etadigan janrlardan biri hisoblanadi. Qissa – bosh qahramon taqdiri vositasida hayotning u yoki bu qirralarini o’rta epik shaklda rivoyaviy usul bilan aks ettiruvchi janrdir. Qadim o’tmishdan to bugungi davr adabiyotiga qadar qissachilikning rivoji uchun qator ishlar qilib kelingan va bu jarayon hali ham davom etmoqda. Bu janr asosan “qahramon ruhiyatidagi murakkab holatlarni, turmushdagi chigal voqeliklarni tasvir etish bilan boshqa epik janrlardan farqlanadi”. Qadimdan mavjud bo’lgan bu janr vaqt o’tishi bilan yanada kamol topib, soddalikdan murakkablik, badiiy mukammallik, ma’noning teran va serko’lamligi tomon siljib bormoqda. Bu yo’lda bir qancha yozuvchilarimizning xizmatlari kattadir. Abduqayum Yo’ldoshevning ham davr qissachiligi uchun qo’shgan hissasi salmoqlidir. Adibning “Sunbulaning ilk shanbasi”, “To’y”, “Timsohning ko’z yoshlari”, “Otchopar yoxud o’n uchinchi uy”, “Yulduzning yo’li” kabi bir qator qissalari kitobxonlar e’tiborini tortishga ulgura oldi. Ular orasidan “Timsohning ko’z yoshlari” qissasi voqea ko’lami va reallikning ustuvorligi bilan bir qatorda ta’sirchanligi jihatidan boshqa asarlaridan ajralib turadi. Asar zamona qizlari uchun kerakli xulosa chiqarishda dasturilamal bo’ladi. Hayotning bir tekisda ravon yo’llardan kechmasligi, bunda qing’ir- qiyshiq so’qmoqlar bilan birgalikda oldimizda uchragan har bir inson ham pok niyatli bo’lmasligi, bosgan har bir qadami o’ylab tashlash kerakligi kabi pandnomalarni uqtiradi.

Qissa qahramonlari real voqelikda harakatlanayotgan, ayni damda biz bilan yashayotgan insonlardir. Asar qahramon tilidan hikoya qilinadi va u ishlaydigan nashriyotda sodir bo’lgan voqea bayon etiladi. Nashriyotga yangi kelgan qiz

Munisaning fojaviy taqdiri qalamga olinadi. Asar mazmuniga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, Munisaning universitetni bitirib hali ham oila qurmagan, bu ketishda yoshi o'tib qari qiz bo'lib qolishidan havotir olgan nashriyot bosh mudirasi Salomat opa unga jon-jahdi bilan kuyov izlashni boshlaydi. Tabiiyki, u bu yo'lda o'zining sevimli mashg'uloti bo'lgan munajjimlar bashorati-yu tush ta'birlariga tayanadi va Munisaning qaysi oyda, qaysi burjda tug'ilganidan tortib, tushida nimalarni ko'rishiga ham qiziqib so'rab chiqadi. Bularning barchasi qizning baxti yo'lida qilingan "beminnat xizmat"lardan edi. Shundan keyin u "Agar qiz bolaning tushida timsohni ko'rsa, ertasi kuni o'z shahzodasi uchratadi", deya qizni tushida timsohni ko'rishga undaydi. Bu holat o'quvchi uchun ham kulguli ko'rinishi tabiiydir. Hech bir zamonda inson ko'rayotgan tushlarini buyurtma qilishi yoki ularni tanlashi aqlga sig'mas holatdir. Lekin Salomat opa bu yo'lda bor kuch- g'ayratini ishga soladi:

"Ha, shubhasiz, opa nimagadir qat'iy ahd qilgan edi. Va bu qat'iyat o'ziga xos bir ko'rinishda namoyon bo'lmoqda edi. Stolida turli gazeta- jurnallardan, kitoblardan qirqib olingan timsoh suratlarini to'ldirib tashlagan Salomat opa zo'r berib.. mana shu so'xtasi sovuq jonivorni tashviq qilmoqda edi: "Ey odamning har narsa bo'lgani ma'qul!" dedim ichimda g'ijinib. Ayniqsa, ertasi kuni men o'tirgan stul ortidagi devorga, shundoqqina Munisaning ko'zi tushib turadigan joyaga bu la'nati maxluqning bir quloch rangli surati yopishtirib qo'yilganini ko'rdimda seskanib ketdim-u, jonim bo'g'zimga tiqilgan ahvolimda opaga achchiq-tiziq gap qilishdan o'zimni tiyib tura olmadim. Zero, suvdan lapanglab chiqib kelib, yaltirab turgan badanini ko'z-ko'z qilayotganday sizga baqrayib turgan ulkan timsohning ko'rinishiyoq har qanday odamni etini junjiktirib yuborardi..". Shundan so'ng oradan vaqt o'tib bir kuni Munisa tushida timsohni ko'rganini aytadi. Xuddi shu kuni nashriyotga uni surishtirib kelgan Pospon( asar qahramoni tilidan unga shunday nom beriladi) uning taqdiri ekanligiga ishongan Salomat ikkisini "baxt rishta"larini bog'lashdek vazifani o'zining oliy burchi sifatida ado etib, bu yo'lda tashabbuskorlikni davom ettiradi. Ammo pospon ular kutgan inson emasdi. Natijada qizning nomusidan ayrilishi, nikohsiz homilador bo'lishi va uning nobud bo'lishi Posponning ayovsiz kaltaklari oqibatida boshidan lat yeb telba holga kelib, ruhiy hastalar shifoxonasiga tushishiga va asar so'nggida viloyatidagi ruhiy hastalar shifoxonasiga topshirib yuborilishi kabi fojaviy qismatni ko'rishimiz mumkin. Endi asarda uchragan har bir obrazga alohida to'xtalib o'tamiz va bu yo'l orqali fojaviylikning ma'lum sabablari ochib berishga harakat qilamiz.

"...Badiiy ijodda bir qonuniyat bor: kitobxon adabiy qahramonni tabiiy qabul qilsa, bilingki, bunday timsolni yaratish uchun ijodkor tinmay ter to'kkan bo'ladi". Abduqayum Yo'ldoshev ham qahramon yaratishda o'z uslubiga ega ijodkorlar sirasiga kiradi. Adib asarlarida uchraydigan har bir obraz yoki personajlarda o'ziga xos xarakterdagi insonlar tasviri tursa-da, ularning har birida turmushning toshqin daryosida tushib qolib undan o'zini torta olmagan, moddiyatni o'zi istamagan holda ma'naviyatdan ustun qo'ygan shaxsning qaysidir ma'noda fojaviy tasviri gavdalanadi va bu xarakter deyarli barcha asarlarida kezib yuradi. "Timsohning ko'z yoshlari"da



ham ana shu kezib yuruvchi ruhiyatni bosh qahramon- muharrir obrazi misolida ko'rishimiz mumkin. Avvalo, ushbu obraz shaxsiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qissa uning tilidan hikoya qilinadi. Tabiiyki, inson o'z-o'ziga hech qachon yetarlicha ta'rif bera olmaydi: yo me'yoridan oshib ketadi, yoki kamtarlik qilib o'zini chetga oladi. Shu sababli o'quvchi bu qahramon ruhiyatini uning xatti-harakatidan, so'zlaridan, atrofida qilgan munosabatidan bilib olishimiz mumkin: "Vaholangki, oynavand qafas ichidagi olmaxon yanglig' tinim bilmayman- hazil gapmi, naq to'rt joyda ishlayman-a! Balki, eski zamonlar bo'lganida, pulga botirib qolarmidim?! Bu kun esa rozg'ordan, oshqozondan orttirib , deydik, ishsiz yoinki maoshsiz qolishim ehtimoli mavjud "qora kunlarim"ga uch- to'rt tanga jamlab qo'yishga-da qurbim yetmaydi-yu , yana "ishlayapman" deya minnatning kattasini qilib o'tirishimning o'zi ortiqcha". Insonning moddiy ehtiyojini ta'minlashga imkon beradigan faoliyati va ijtimoiy hayotini belgilashga imkon beradigan holatlar, voqea- hodisalar insoniy harakatlar zamirida yotgan mohiyatni idrok etishi - bor haqiqat. Ammo shu moddiyatning qutqusiga tushib atrofida bo'layotgan hodisotlarni to'la anglamaslik, yoki tushunib yetgan holda unga yetarli e'tiborni ajratishdagi hafsalasizlik ham qaysidir ma'noda insoniyat tanazzulining bir ko'rinishidir. Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, qahramon uchun hayotning ijtimoiy ahamiyati birinchi o'rinda turadi. Birini ikki qilish yo'lida tinim bilmagan, ammo omadsiz inson obrazini esga oluvchi bu qahramon qissani o'qish davomida o'ziga xos bo'lgan beparvolik, o'zini olib qochishlik kabi xususiyatlarini ham ochib beradi. Bu bilan esa Munisaning fojiaiy qismatiga qaysidir ma'noda sababchi bo'ladi. Ya'ni Pospon bilan u avvaldan tanish, uning nayranglari haqida qisman bo'lsa-da boxabar edi: "...o'sha "hazilkash" yigitcha shtatsiz drujinnik degan guvohnomani ko'tarib yurarkan, o'zi Toyir bilan o'qirkan, so'ng ichkuyovlik maqomida uylanishga majbur bo'lib qolgach, texnikumni tashlab ketib qolgan ekan. Toyirning gapiga qaraganda, hayotda omadi kelmagani bois sal alamzadaroq bo'lib qolgan ekan. Buning ustiga gumbazday xotini deyarli har kuni janjal ko'tarib, pul talab qilarkan. Uzunquloq gaplarga qaraganda, bu shang'i xotinning qo'li ham sal yugurikroq ekan. Ana shunday paytlarda bu yigitcha eski tanishlarinikiga jo'nab qolarkan-u, alamdanmi, o'sha kungiga o'xshash tomoshalarni ko'rsatib yurarkan. Toyirning taxminicha, xotinidan Azroildan qo'rqqandek holga tushib qolgan bu yigitcha, ayniqsa, begona qiz- juvonlarni ustidan kulishdan, ularni xo'rlab qo'yishdan boshqacha huzur toparkan..". Avvaldan tanish, qachonlardir o'zini ham do'sti oldida hijolatiga sabab bo'lgan bu yigitcha nashriyotga ilk kelgan kuniyoq qahramon o'zini uni tanimagandek tutadi. Garchi Pospon haqida hamma ma'limotga ega bo'lishiga qaramasdan o'zini beparvo ko'rsatadi. Go'yo u uchun bular hech biri ahamiyatsizdek. Aslida esa jamiyatdagi eng yomon illatlardan biri loqaydlikdir. bu orqali qaysidir ma'noda Munisaning fojiasiga sababchi bo'lib qoladi.

Asarning yana bir qahramoni Salomat opa obrazi Munisaning fojiasiga yo'l ochgan eng katta aybdorlardan hisoblanadi. Uni asarni o'qish davomida o'quvchida o'ziga nisbatan nafrat uyg'otishiga sabab bo'ladigan bir qancha o'rinlarda ko'rishimiz

mumkin. Biroq hayotda nuqsonlardan holi, kamchiliksiz, qalbi faqat ezgu ishlarga limmo-lim to'la insonlar bo'lavermaganidek, amallari faqat "ahmoqlik", "ayyorlik" yohud "yomonlik" kabi tushunchalardan iborat bo'lgan toifa vakillari ham mavjud emasdir. Salomat opa tasvirida ham adib uni faqat qora bo'yoqlarda ko'rsatib qolmasdan, uning o'z ishiga bo'lgan layoqadsiz, tanballik holatlariga tushishiga sabab bo'lgan omillarni ham sanab o'tadi. Bu orqali ijodkorning mahorati qay darajada ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz. Lekin asosiy e'tiborni tortadigan jihat bunda emas, balki hatti-harakatlar orqali ruhiyatning qay darajada ochib berilishidadir: "...bu gap birinchi navbatda pochchangga tegishli. Chunki uyam senga o'xshash lattachaynar bir er. Uyam senga o'xshab kun bo'yi ming'illab o'tirishdan boshqasiga yaramaydi! Bunaqalarga erkak degan nomning o'zi hayf! - opa stolni surishdan to'xtadi va , aftidan, qizning shu yerda ekanligini payqadi-yu, ammo tog'dan quyiga otilgan, jonidan to'ygan odamday o'zini tutaolmadi: - Oliy ma'lumotli emish! Dars berarmishlar! O'zi bo'lsa, o'n ikkidan uyga kelib olib, xotining yo'lga ko'z tikib o'tirishdan boshqasiga yaramaydi. Ha, kutsang kutibsan, o'tir erkakka o'xshab. Yo'q, akam uy supuradilar egilib, pol yuvadilar egilib, kir yuvadilar egilib, meni ham egili-ib kutib oladi. Erkak bo'lmay ket! - Opa stolga qarsillatib musht tushirdi. -Nima, menga juda zarilmi oltidan keyin ham bu yerda o'tirish gazet titkilab. Uyga borgim kelmaydi, chuchmal gaplariyam, chuchmal basharasiyam jonimga tekkan! To'rt-besh bekat piyoda yuraman, atay kechikib boraman, zora do'q-po'q urib qolsa, jahli chiqsa deb. Qayoqda turaveradilar irshayib! "Charchamadingizmi?" deb qo'yadilar yana. "Siz"laganini-chi! "Ovqat qilib qo'ydim", deydi.." . Chetdan qaraganda kitobxon bu obraz orqali noshukur, o'ziga berilgan imkoniyatlarga shukur qilmasdan noliydigan inson obrazini ko'rishi mumkin. Turmush o'rtog'idan kaltak yeyish-u , uning o'rinsiz pul sarf etishidan ozor chekadigan ayollarni tushunsa bo'ladi. Chunki ba'zi ayollar uchun ideal er bu uni aytganlarini qonun deb biladigan, chizgan chizig'idan chetga chiqmaydigan, bir so'z bilan aytganda, itoatkor er obrazi gavdalanadi. Lekin yer yuzida insoniyat yaratilgandan boshlab oilada ayol bilan erkakning o'rni va vazifalari Odam Ato va Momo Havo misolida ko'rsatib berilgan. Ayrim insonlar bor hayoti shu qolipda kechishini xohlaydigan , ba'zilari esa buning mutlaq teskaridir. Shu boisdan Salomat opaning ham bu borada o'z qarashlari mavjud bo'lib, Munisani Pospon bilan topishtirishda qaysidir ma'noda o'zi orzu qilgan er timsolini , erkak kishidagi bo'ladigan shahdni (o'z eridan topa olmagani bois) Pospondan izlaydi. Hatto Munisaning kaltak zarbidan ko'kargan yuzlari, qo'llarini ko'rganda ham parvosizgina er bo'lgandan keyin uradi-da, deya buni e'tiborsizlikka yo'yadi. Uning nazdida haqiqiy erkak kunda, kun ora xotinini urishi bu shunchaki uni qizg'onganidan, rashk sabab deb bechora qizni bir necha bor ovutgan bo'ladi. Lekin qissaning oxiri "erning zo'ri - xotinning sho'ri" degan o'zbek maqolini yana bir bor oqlaydi va Salomat opa obrazi esa o'quvchi ongida nafratning tobora ortishiga sabab bo'ladi. Chunki u qachonlardir jon kuydirib turmushga berishga intilayotgan Munisa taqdiriga u telba bo'lib qolgandan so'ng, shu darajada bepisand qaraydiki, go'yo uning bu hodisalarga hech qanday



aloqasi yo'qdek. Endi u Munisaning o'rniga yangi kelgan qiz Munira bilan, uning hayoti bilan qiziqib qoladi. Uning bu hatti-harakatlari o'z qo'g'irchog'ini o'ynab qo'l-oyoqlarini sindirib bir yoqqa otib, ota-onasi keltirib bergan yangi o'yinchoq bilan ovunayotgan yosh bolani eslatadi. Yozuvchi tomonidan achchiq kinoya va nafrat o'quvchi qalbiga ham singadi. Biroq eng achinarlisi bunday insonlarni jamiyatda uchratishimizda mubolag'aga o'rin yo'qligidadir.

Endi bor e'tiborni Munisaning o'ziga qaratadigan bo'lsak ijodkor asar boshida uning portretini qisqagina yaqinda ish boshlagan hamkasb sifatida tasvirlab ketsada, yo'l- yo'lakay uchragan har bir dialoglar vositasida nafaqat uning tashqi portretini, balki ichki ruhiy tasvirini ham mohirlik bilan bayon etib ketadi. Quyidagi tasvir orqali uning tashqi qiyofasi o'quvchi tasavvuriga gavdalanadi: "O'zi deng, jismiyam ushoqqina edi-da. Yana esimda qolgani: ingichka barmoqlari shu qadar nozik ediki, qalamni sal qattiqroq qissa bas, ular duv to'kilib tushadigandek edi. Ozg'in qiz-juvonlarga nisbatan g'ayrligini yashirib o'tirmaydigan Salomat opa ham tan berib, qizning barmoqlarini "pianinochiniki" deb yuborgandi bir gal...". Ijodkor uning jismini qanchalik nozik tasvirlagan bo'lsa, ichki dunyosini ham shunga munosib ravishda tasnif etadi. Ammo undagi soddalik, beg'uborlik va ishonuvchanlik bilan bir qatorda tortinchoqlik uning qishloq qiziga xos bo'lgan xususiyatlarini ochib beradi. Buni uning odmigina kiyinishida, oilaviy ahvoli havas qilarlik ahvolda emasligiga qaramasdan, turli shirinliklar, somsalar pishirib borib hamkasblarini mehmon qilishida, lekin o'zi tortinib chimxo'rlik bilan ovqatlanishida ko'rishimiz mumkin. Salomat opa so'rab-surishtirib oilaviy vaziyatini bilib oladi: yoshi 26ga borib qolgan bu qiz allaqaysi ovuldan shoira bo'laman deb kelgani, o'qishga ikki yil kira olmasdan uchinchi yil kirgani, universitetni bitirganiga bir yil bo'lib nashriyotda ishlab yurgani, oilada uch qiz bo'lib, Munisa ularning kenjasi ekani, otasi nafaqada, onasi bir marta insultni boshidan o'tkazib esi kirar-chiqar bo'lib qolgani, ikki opasi bola-chaqali bo'lib o'z ro'zg'oridan orttirib yordam bera olmasligidan tortib, Munisaning oilasi uchun topgan uch-to'rt so'mini ham uyiga yuborib turishiga qadar hammasini batafsil aniqlaydi. Tabiiyki, bularning barchasi istiqbolsiz taqdiridan darak berardi. Biror mo'jiza ro'y bersagina uning baxti ochilib ketishi mumkinligi, hayoti uchun oila qurishgina yagona yechimdek tuyuladi. Bundan tashqari she'r ham yozib, radioga turli ssenariylar berib turar, radioda ishlaydigan bir dugonasi bilan ijarada turardi. Agar chetdan e'tibor qilinadigan bo'lsa, butun hayoti, qiziqishlari shahar muhiti bilan bog'liq bo'lgan qiz uchun "shaharlik kuyov"ni uchratish bu baxt qushining kelib boshga qonishidek gap edi. Boshqa tomonda yoshi ham o'ttizga yaqinlashib qolayotgan qiz uchun bu ayni muddao edi. Bundan tashqari opaning ham ha deganda undashlari uni tashqi ko'rinishi ham unchalik o'ziga tortavermaydigan Pospon bilan tanishishga undaydi. Biroq yigit u o'ylagan inson bo'lib chiqmaydi. Tergashlar, kaltaklar, buning ustiga pul talab qilishlar boshlanadi. Shunisi sir emaski, adabiyotda "aldangan qiz" obrazi bot-bot qalamga olingan va olib kelinmoqda. Buni biz Cho'lponning "Nonvoy qiz", G'afur G'ulomning "Ko'ngilsizning qiligi", O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" asarlari

misolida ko'rishimiz mumkin. Qiz bolaning nomusi masalasi o'zbek xalqi juda katta ahamiyat kasb etadigan jihatlardan biri sanaladi. Chunki har bir qiz yangi oila ostonasiga qadam qo'yar ekan bo'lajak turmush o'rtog'i, uning oila a'zolari uchun birinchi navbatda kelinning bokiraligi masalasi o'rtada turadi. Bu odamlar ongiga qadimdan singdib kelgan aqida bo'lib, o'tmishda yangi kelinning to'ydan avval nomusi toplatganligi ma'lum bo'lsa uni el ichida sazoyi qilishgan. Shu bilan birga yaqinlari ham xalq orasida izza qilingan. Ko'pchilik hollarda ular o'z origa chiday olmasdan opasi, singlisi yo qizi bo'lgan bunday qizlarning qotiliga aylangan. Lekin "Timsohning ko'z yoshlari"da qizning nomusi uchun kurashadigan na akasi va yoki na ukasi bor edi. Ustiga-ustak qaysidir ma'noda bunga o'zi ham sababchi edi. Ana shu aybdorlik hissi uni ham jisman, ham ruhan kemirib boradi. Buni Pospon bilan bo'lib o'tgan o'sha mash'um kechadan so'ng "shamollash" sabab ishga kela olmagan Munisaning tasvirida ko'rishimiz mumkin: "...ozib-to'zib, mushtdaygina bo'lib qolibdi, ko'zlari kirtayib, ich-ichiga botgan. Ancha qorayib ham ketibdi. Rosa issig'i chiqqandir-da. Bu fikr meni kulgimni qo'zg'atadi, lekin o'sha erinmagan muhandis birodarim bizning gazetada chiqqan "qaydlar"ida shunday deb yozib qo'ygan bo'lsa men nima qilay: quyosh nuridan ko'ra ichdan chiqqan issiqlik odamni ko'proq qoraytirarmish...". Uning bu iztiroblari homilador ekanligi ma'lum bo'lgach yanada ortadi. Bu harakatlar o'zini teskari oqimga otib, keyin nima qilarini bilmasdan qolgan havaskor suzuvchini yodga soladi. Biroq hayotning shafqatsiz ekanligi uning keyingi taqdiri misolida ko'rishimiz mumkin. Go'daklik paytidanoq qiz bola uchun eng azaliy orzu bu uning ona bo'lish baxtiga muyassar bo'lishidir. Jajji qo'lchalarida qo'g'irchog'ini olib uni erkalashlari, kichik ko'ksiga bosib allalashlari - bularning barchasi uning qalbida yetishib kelayotgan onalik mehrining, shirin orzularning nishonasidir. Munisa ham garchi qornidagi bola na qonuniy va na shar'iy bo'lmasligiga qaramasdan uni dunyoga keltirishga, onalik baxtiga muyassar bo'lishga intiladi. Biroq buni Pospon istamaydi. Qonuniy farzandlarini boqa olmagan inson uchun benikoh bolaning nechog'lik ahamiyati bor. Opa ham uni boladan qutulishga undaydi va Munisa bolani oldirishga rozi bo'ladi.

Endi asar nomiga to'xtaladigan bo'lsak, har bir yaratilgan asarga nom tanlanar ekan yozuvchi-yu shoirlar tomonidan uning nima uchun bunday nomlangani haqida asar ichida qisqacha izoh keltirib o'tiladi. Shu boisdan u asar mazmunini ochishga ko'maklashuvchi kalit vazifasini ham o'taydi. "Timsohning ko'z yoshlari" asarning bunday nomlanishining ikki ya'ni badiiy va ilmiy asosi bor. Qissadan anglanadiki, timsoh asarda ma'lum bir vazifani bajaruvchi detal, asar qahramoni Salomat opa ta'biri bilan aytganda ilohiy kuchga ega timsol hisoblanadi. Lekin qissa oxirida bosh qahramon Munisani shifoxonaga ko'rgani borganida: "...Banogoh qiz aniq-tiniq mening ismimni aytib chaqirdi va so'zlarni bo'lib- yamlagancha xirqirab faryod urdi: "O'shanda.. o'shanda timsoh... yig'layotgandi... yig'layotgandi... Meni yeb qo'yib yig'layotgandi..." .Timsohning ko'z yoshlari badiiy asar tilida ibora sanalib, histuyg'ularning soxta, samimiy bo'lmagan ifodasini, soxta yig'lashni anglatadi. Bu ibora



timsohlar o'ljasini tanovul qilayotgabda yig'laydi, degan qadimgi ishonchdan kelib chiqqan. Plutarix asarlaridan birida timsohning hatti-harakatlari kimnidir o'ldirishga qasd qilib, keyin qurboniga motam tutadigan odamlarning qilmishiga qiyoslanadi. Rotterdamlik Erasmus "Hikmatlar" kitobida ushbu iboraning zamonaviy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlashga hissa qo'shgan, bundan tashqari, A E Maxova fikricha, "Timsoh ko'z yoshlari" "zologiyasi"dan "narsa"dan "so'z"ga uslubida maqol yasagan Erasmusdir. XVI asrdagi alifbo kitobida (lug'atda) shunday deyiladi: "Timsoh suvda yashovchi hayvondir. Qachonki insonni yesa, yig'laydi va qattiq bo'zlaydi, lekin yeyishdan to'xtamaydi. Tanasini boshidan uzar ekan bo'zlab yig'laydi".

Yuqoridagi berilgan ta'rifdan so'ng asar mazmuni bilan nomi o'rtasidagi mutanosiblikning qay darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin. Lekin majoziy timsoh obrazi asarda aynan kim edi?! Posponmi? ,Salomat opami?, yoki qissani hikoya qilib beruvchi bosh qahramon? Aybdorlar ro'yxatining bu darajada ko'payib ketishing ma'lum bir sabablari mavjud. Har bir obraz qaysidir ma'noda Munisaning fojiasi oldida javobgardek tuyuladi. Tashqi tomondan qaraganda Pospon asl aybdor bo'lsa-da, Salomat opa obrazi ham ichki jihatdan bunda javobgar shaxslardan hisoblanadi. Chunki asardan olingan quyidagi parcha go'yoki, timsohning yolg'on ko'z yoshlariga o'xshaydi: "...yumushimga har qancha jon-jahdim bilan yopishgan bo'lmay, bir narsani ilg'aganday bo'ldim: opa o'zini haddan tashqari g'amgin ko'rsatar, uf tortib qo'yishlari ham boshqa kunlarnikiga nisbatan sezilarli darajada ko'proq edi. Munisaga hamdardona boqib qo'yishlaridayam allaqanday sirli bir ma'no borday..." .

Boshqa tomondan asardagi hikoyachi muharrir ham qaysidir ma'noda bunga sababchilardan hisoblanadi. Chunki u Posponning qanday shaxs ekanligini bilar, lekin, Munisaga gul sifatida qaraydigan bo'lsak, bog'ida o'sgan bir gulni chaqirtikanakdan asray olmaydi va uning halokatini chetdan kuzatib turish bilan kifoyalanadi. Ammo bu yerda asosiy masala bunda emas, balki muallifning muammoni ochib berishdagi mahorati , qolaversa asardan ko'zlangan maqsaddadir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, qissa ijtimoiy muammoni to'laligicha aks ettirgan holda uni badiiy bo'yoqlar ko'rsatgan asarlar sirasiga kiradi. Asarda faqatgina Munisaning emas unda qalamga olingan har bir obrazning fojiasiga guvoh bo'lamiz. O'quvchi qissani ichki hayajon, g'azab, iztirob bilan o'qiydi. Mutolaadan so'ng ham ancha vaqt qalbining o'y-xayollarida asar qahramonlari bilan birga yashab , ular his qilgan tuyg'ularni o'zida-da sezadi. Bu esa ijodkor mahoratining darajasini yana bir bor isbotlaydi , hamda asarning o'qilishlik jihatini ta'minlaydi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karomova Sh Hozirgi adabiy jarayon .Toshkent "TURON –IQBOL". 2019, B - 43
2. Абрамович Г. Л. Введение в литературоведение.- М.. Учпедгиз. 1956.- С. 243

3. Yo'ldoshev A. Timsohning ko'z yoshlar.- T. 2003 ko'z
4. Rasulov A. Betakror o'zlik-Toshkent, Mumtoz so'z, 2009.
5. Каторгина Д.Ю.Ромашина О.Ю.(2016) Сравнительный анализ эмоциональных фразеологических единиц с компонентом-зоонимом
6. Константин Богданов .О кракодилах в Росси. Очирки из истории заимствовании икзотизмов .